

KORXONALARDA STRATEGIK RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Xolbekov Rafikjon Alimbekovich

O'zbekiston Milliy universiteti,

Xarbiy tayyorgarlik o'quv markazi o'qituvchisi

Annotatsiya: Korxonalarning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlash strategik rivojlantirishni samarali amalga oshirishga bog'liqdir. Maqolada strategik rivojlantirishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari, ularning amaliy ahamiyati va tashkilotlarning uzoq muddatli o'sishiga ta'siri tahlil qilindi. Strategik rejalashtirish, innovatsiyalar, kadrlar salohiyati va resurslarning samarali taqsimlanishi korxonalarda raqobatbardoshlikni oshirish va bozorda ustunlikni ta'minlashning asosiy omillari sifatida ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: Strategik rivojlantirish, innovatsiyalar, biznes-strategiya, korporativ madaniyat, resurslarni boshqarish.

Abstract: The sustainable development and competitiveness of enterprises depend on the effective implementation of strategic development. This article analyzes the main directions for improving strategic development, their practical significance, and their impact on the long-term growth of organizations. Strategic planning, innovations, personnel potential, and efficient resource allocation are considered as key factors for enhancing competitiveness and achieving market leadership in enterprises.

Keywords: Strategic development, innovation, business strategy, corporate culture, resource management

Kirish

Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonlari dolzarblik kasb etib borayotgan bugungi kunda korxonalarni strategik rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Korxonalarni rivojlantirish, uning talablarini bajarish, ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalardan samarali foydalanish xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning zamonaviy menejment usullaridan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Bu boradagi talablarning bajarilishi, tendensiya va jarayonlarning ta'minlanishi real sektor korxonalarini, xususan, sanoat, qishloq xo'jaligi hamda xizmat ko'rsatish sohalari iqtisodiyotini kompleks rivojlantirish, ularga innovatsion ishlanmalarni keng joriy etish hisobiga mahsulotlar eksporti doirasini kengaytirish va ko'lamini oshirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga erishish imkonini yaratadi.

Hozirda korxonalarda strategik rivojlantirishda jahon miqyosida zamonaviy menejment uslublaridan maqsadli foydalanish, boshqaruv samaradorligini intensiv ko‘rsatkichlar asosida kompleks baholash hamda investitsion salohiyatini oshirishga doir ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, zamonaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish hisobiga korxonalarini strategik rivojlantirishni ta‘minlash, zamonaviy menejmentda boshqaruv metodologiyasini takomillashtirish, innovatsion tizimli tahlil usullarini qo‘llash masalalariga e‘tibor kuchaytirilmoqda. Jahonda korxonalar innovatsion faoliyatining rivojlanishi va ularning zamonaviy boshqaruvi hamda yetakchi davlatlar iqtisodiyoti-dagi tarkibiy o‘zgarishlar va munosabatlarni yanada takomillashtirish hozirgi davrdagi asosiy ilmiy tendensiyalardan hisoblanadi.

Natijalar

O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, strategik boshqaruvning nazariy va amaliy jihatlarini takomillashtirish, shuningdek, yengil sanoatning yetakchi tarmoqlaridan bo‘lgan transport korxonalarini strategik rejalashtirish va rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari A.Sh.Bekmurodov, M.R.Boltabaev, N.Q.Yo‘ldoshev, U.A.Shodmonova, G.M.Ostonaqulova, D.S.Nasyrkhodjaeva, S.N.Yuldashev, D.X.Suyunov, E.A.Xoshimov, B.A.Xolbaev, Sh.A.Xusainov va boshqa bir qator olimlarning ishlarida o‘z aksini topgan.¹⁸

Muhokama

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekiston transport tarmog‘i korxonalarida strategik boshqaruv dolzarb muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi. Rivojlangan G‘arb davlatlarida “strategiya” tushunchasi biznesga XX asrning 50-60-yillarida kirib keldi. Shu davrdan boshlab korxonani boshqarishda strategiyaning mohiyati va mazmunini tavsiflash borasida bir qator dunyoqarashlar vujudga keldi.

¹⁸ А.Ш.Бекмуродов, Янг Сон Бе. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана: Кластерный подход. Монография. -Т.: ТГЭУ, 2006. -112 с.; М.Р.Болтабаев Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноати экспорт имкониятларини ривожлантиришда маркетинг стратегияси: иқтисод фанлари доктори дисс. автореф. -Т.: ТДИУ, 2005. -40 б.; Н.Қ.Йўлдошев, М.Р.Болтабаев, О.К.Рихсимбоев, Б.О.Ғаниев Стратегик менежмент. Ўқув қўлланма. -Т.: ТДИУ, 2003, -102 б.; У.А.Шодмонова Иқтисодиётни эркинлаштириш шaroитида енгил саноатнинг барқарор ривожланиш хусусиятлари: иқтисод фанлари номзоди диссертацияси. Ижтимоий-иқтисодий тадқиқотлар маркази. -Т.: 2006. -149 б.; Г.М.Остонакулова Ипакчилик тармоғи ривожланишининг маркетинг стратегияси: иқтисод фанлари номзоди диссертацияси. -Т.: ТДИУ, 2010. -147 б.; Д.С.Насырходжаева Формирование стратегии развития промышленных предприятий на отраслевых рынках: Автореф. дисс. докт. экон. наук, -Т.: АН РУз Институт экономики, 2011. -47 с.; С.Н.Юлдашев Акциядорлик жамиятларида давлат мулкни бошқариш ва ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш йўллари: иқтисод фанлари номзоди диссертацияси. -Т.: ТДИУ, 2010. -167 б.

Strategiyaning korxona faoliyatini koordinatsiyalashuvidagi o'rni strategiyaning faqatgina tadbirkorlik faoliyati qarorlarini ishlab chiqishidagina emas, balki bu qarorlarni qabul qilishda foydalanilgan usullarda ham o'z aksini topadi. Maqsadli raqobat mavqeiga erishish strategiyasining bo'lishi shu boisdan ham muhimki, rahbariyat va korxona a'zolarida alternativlardan qaysi birini tanlash kerakligi, qanday yo'nalishda faoliyat yuritish kerakligi to'g'risida tasavvur bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, strategiya korxona muvaffaqiyatidan manfaatdor bo'lganlar uchun o'zini yo'qotib qo'yish, faoliyat yuritmaslik uchun "dori" vazifasini bajaradi.

Korxonaning maqsadli raqobat mavqeiga erishish strategiyasi to'g'risida gapirar ekanmiz, strategiyani ishlab chiqishni faqatgina formal rejalashtirish ko'rinishiga keltirish uni soddalashtirish ekanligini hisobga olishimiz muhimdir. Agar Minsberg G., Alstrend B. tomonidan strategik boshqaruvga nisbatan yondashuvlar klassifikatsiyasidan foydalanadigan bo'lsak, u holda dizayn, rejalashtirish va mavqelashtirish maktablarining namoyandalari strategiyaning aniq shaklda berilishini, uni hujjat tarzida barcha manfaatdor shaxslarga yetkazilishi kerakligini ta'kidlaydilar. Boshqa maktab namoyandalari esa strategiyaning shakllantirilishi uning amalga oshirilishi bilan birga parallel ravishda amalga oshirilishi kerak, deb hisoblaydilar.

Strategiyaning qabul qilinishi mumkin bo'lgan shakllarini oldindan o'ylangandan boshlab, to oxirgi detaligacha va umuman kutilmaganda yuzaga kelishi mumkin holatlarga hisobga olgan holda, quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Rejali strategiyalar. Bunday strategiyalar rasman rejalar ko'rinishida ishlab chiqiladi. Korxonaning yuqori rahbariyati tomonidan aniq shakllantirilgan, bajarilishi ko'zda tutilgan ishlar rasmiy nazorat o'rnatish orqali strategiyani yaxshi, nazorat qilinadigan va oldindan aytish mumkin bo'lgan sharoitlarda bajarilishi ta'minlanadi. Ko'pincha, bunday strategiyalar oldindan o'ylangan bo'ladi.

2. Tadbirkorlik strategiyalari. Bunday strategiyalar markazlashgan ko'ra bilishlik tarzida yuzaga keladi. Bajarilishi ko'zda tutilgan ishlar rahbarning shaxsiy fikri hisoblanib, rahbar tomonidan rasman e'lon qilinmagan holatlar, ko'ra bilishlikka asoslangan bo'lgani sababli u yangi sharoitlarga moslasha oladi.

3. Ideologik strategiyalar. Bunday strategiyalar turli kishilar qandaydir ishontirishlarni ilgari surganlarida, bajarilishi ko'zlanayotgan ishlar qattiq nazorat qilinadigan me'yorlar asosida, jamoaning barcha a'zolari tomonidan qabul qilinadigan jamoaviy ko'ra bilishlik tarzida bo'ladi. Bunda korxona tashqi muhitga nisbatan faol rol o'ynaydi.

4. Jarayonli strategiyalar. Bunday strategiyalar jarayonda yuzaga keladi. Rahbariyat strategiyaning ayrim jihatlarini nazorat qiladi (kimni ishga olish kerakligini, qanday tarkibda bo'lishini va h.k.), strategiyaning mazmunini belgilashni boshqalarga qoldiradi.

Korxonani strategik boshqarish borasida Tompson A.A. va Striklend A.Dj.larning fikri e'tiborga loyiq. Ularning fikricha, uyushma strategiyasining mohiyati, odatda puxta o'ylangan va maqsadga yo'naltirilgan faoliyat hamda hodisalarning kutilmagandagi o'zgarishlariga yoki yangi raqobat bosimi yuzaga kelishi sababli javob harakatlarini ishlab chiqish zarurligini birlashtirishdadir.¹⁹

Korxona rahbariyati strategiya chegarasida qaysi biznes yoki bizneslar bilan shug'ullanish kerak va tanlangan biznes bilan qanday qilib yaxshiroq shug'ullanish mumkinligini aniqlab olishi kerak. Mazkur savollarga javob berishning zaruriyligi korxona strategiyasining ierarxik tuzilmasini belgilab beradi. Odatda, adabiyotlarda strategiyani ishlab chiqishda uchta darajani ajratiladi: korporativ, biznes yoki ishbilarmonlik va funksional strategiyalar.

Xulosa: Korxonalarda strategik rivojlantirishni takomillashtirish ularning barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Innovatsiyalar, kadrlar salohiyati va resurslarni samarali taqsimlash orqali korxonalar bozor talablariga tez moslasha oladi, strategik maqsadlarga erishadi va uzoq muddatli ustuvorlikka ega bo'ladi.

REFERENCES

1. Томпсон А.А., Стрикленд А.Дж. Стратегический менеджмент: концепции и ситуации / Пер. с 9-го англ. изд. -М.: ИНФРА-М, 2001. -412 с.
2. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – S. 2321-6247.
3. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – S. 2321-6247.
4. Suyunova D.D. Corporate in joint stock companies ways to use digital technologies to improve management.European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS), Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 4 No 09. September 2023 ISSN:2660-5570.

¹⁹ Томпсон А.А., Стрикленд А.Дж. Стратегический менеджмент: концепции и ситуации / Пер. с 9-го англ. изд. - М.: ИНФРА-М, 2001. -412 с.

5. Suyunova D.D. Korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasiga ilmiy qarashlar. Iqtisodiy tarqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnali, 2024 yil 31 iyul. <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/1472/1379>.
6. Suyunova D.D. Raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirish masalasiga ilmiy yondashuv. (Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2022 yil 23 dekabr.)
7. Suyunova D.D. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni joriy qilishning raqamli transformatsiyasini amalga oshirishga ilmiy-nazariy yondashuv. (Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirvorlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2022 yil 23 dekabr).
8. .Sh.Bekmurodov, Yang Son Be. Strategiya razvitiya tekstilnoy promyshlennosti Uzbekistana: Klasternyy podxod. Monografiya. -T.: TGEU, 2006. -112 s.;
9. M.R.Boltabaev O‘zbekiston Respublikasi to‘qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi: iqtisod fanlari doktori diss. avtoref. - T.: TDIU, 2005. -40 b.;
10. N.Q.Yo‘ldoshev, M.R.Boltabaev, O.K.Rixsimboev, B.O.G‘aniev Strategik menejment. O‘quv qo‘llanma. -T.: TDIU, 2003, -102 b.;